

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASHNING MA'MURIY-HUQUQIY ASOSLARINI TA'MINLASHNING
HUQUQIY ASOSLARI**

Nurullayeva Shahnoza Farxod qizi

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB JXX HPB VYMB inspektor psixolog
Yuridik fanlar Kapitan*

Annotatsiya: Respublikamizda amalga oshirilgan islohotlar fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ularning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, inson qadri tamoyilini ilgari qo'yish nazarda tutilgan. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli Prezident farmoni hamda 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-sonli Prezident qarori asosida O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida ishlar amalga oshirilmogda. Bu ikkala qonun hujjati buning jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizni ta'minlashning ma'muriy huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi konsepsiysi, huquqiy tartibga solish, inson, uning huquq va erkinliklari, ma'muriy-huquqiy asos, tashkiliy-huquqiy jihat.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini tartibga solish va ta'minlash holatlari bilan bog'liq kamchiliklar davlat organlarining milliy tizimining faoliyati samaradorligi va qonuniylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamoat xavfsizligini ta'minlashning ayrim sohalarida ularning mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlariga putur yetkazadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ma'muriy-huquqiy qo'llab-quvvatlash nazariyasini ishlab chiqish va shu asosda jamoat xavfsizligi sohasidagi ma'muriy qonunchilikni tizimlashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish dolzarb ko'rindi.

O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini tartibga solish va ta'minlash sohasining huquqiy asoslariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel
2. 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli Prezident farmoni

3. 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 5050-sonli Prezident qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.03.2023 yildagi "2022—2025-yillarda O‘zbekiston respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 121-sodn Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2018 yildagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4075-sodn Qarori

Ma’muriy-huquqiy sohada huquqiy tartibga solish va jamoat xavfsizligini ta’minlashning aniqlangan muammolar majmuasi ma’muriy-huquqiy fan uchun o’zining ahamiyati jihatidan favqulodda bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlash huquqiy kategoriya sifatida jamoat xavfsizligini, shuningdek, ma’muriy-huquqiy sohani har tomonlama o’rganishni talab qiladi. Jamoat xavfsizligini ma’muriy-huquqiy ta’minlash mamlakatning shaxsiy, jamoat, davlat va milliy xavfsizlikni ta’minlash paradigmasiga o’tishi sharoitida erishiladi. Jamoat xavfsizligining huquqiy mohiyatini va uning shaxsiy, davlat va milliy xavfsizlik bilan bog’liqligini aniqlashda mavjud qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, u ob’ektiv ravishda o’ziga xos tarixiy (shuning uchun dinamik) xususiyatga ega va "tabiatdagi" o’zaro munosabatlarning barcha shakllari va yo’naliishlari inson - jamiyat tizimi bilan chambarchas bog’liq. Muayyan vaqt oralig’ida xavfsizlik holati ichki va tashqi tahdidlarning jiddiyligi va boshqaruv tizimining ularga javob berish xususiyatiga qarab boshqa darajaga ega bo’lishi mumkin.

Jamoat xavfsizligini ma’muriy-huquqiy ta’minlashni umumiy xavfsizlik doirasidan ajratish uchun asos bo’ladigan ob’ektiv omillar quyidagilardir:

-unda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning ko‘p qirraliligi va o’ziga xosligi;

-ularni tartibga soluvchi maxsus ma’muriy-huquqiy normalarning mavjudligi;

-jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi huquqbazarliklar uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash;

- jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus ma’muriy-huquqiy funktsiyalarning mavjudligi;

- ushbu funktsiyalarni qonun hujjalarda belgilangan usullar va usullar orqali belgilangan shakllarda amalga oshiradigan davlat organlari va boshqa sub’ektlarning mavjudligi.

O‘zbekiston Respublikasi 2023-yil 30-aprelda umum referendum orqali qabul qilingan Konstitutsiyasi bevosita asos bo‘lib xizmat qilishi, uning har bir normasi negizida jamoat xavfsizligini ta’minlash, uning uning huquq va erkinliklari, huquqiy manfaatlari, kafolatlari, mudofaa va xavfsizlik masalalari yoritilib, oliy qonun darajasigaolib chiqilgan.

2021-yil 29-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 27-sloni Prezident farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiysi qabul qilindi va unda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratildi: jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchalariga, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi milliy manfaatlarni ekanligiga, jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar haqida, konsepsiyanı amalga oshirish mexanizmlari, konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar haqida so'z yuritilgan.⁵²

Ushbu farmon orqali yana bir hujjat 2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi ham qabul qilingan bo'lib, unda Strategiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritilga:

-jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimplashtirish hamda mavjud huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etish;

-jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya faoliyatini uyg'unlashtirish;

-jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlarni o'tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birqalidagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish;

-jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga zamonaviy shakl va ish usullarini hamda ilg'or axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

-jamoat xavfsizligi tizimini raqamlashtirishni 90 foizga yetkazish orqali xizmat faoliyatida inson omilini minimallashtirish;

-profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishini keskin kamaytirish.⁵³

Jamoat xavfsizligi sohasida yagona qonun hujjati loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish orqali jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va probatsiya sohasidagi munosabatlarni vakolatlarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq normativ-huquqiy va idoraviy normativ hujjatlar normalari va qoidalarini birlashtirish zaruratining mavjudligi ko'rsatilgan. Shuningdek, ushbu strategiya orqali jamoat xavfsizligiga xavflarning holati va darajalarini belgilovchi mezonlarni va asosiy ko'rsatkichlarni (indikatorlarni) ishlab chiqish hamda joriy etish haqida, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining tarkibiy qismlarini ifodalovchi masalalarni chuqur ilmiy o'rganish asosida Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya ta'lim muassasalari o'quv jarayonida “Jamoat xavfsizligi asoslari” fanini joriy etilishi, shu jumladan “Jamoat xavfsizligi asoslari” darsligini tayyorlash, shuningdek, respublika ta'lim muassasalarida kriminologiya fani o'qitimishini rivojlantirish. Milliy

⁵² 2021-yil 29-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 27-sloni Prezident farmoni

⁵³ 2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi

gvardiya va ichki ishlar organlaridan jamoat tartibini saqlashga jalg qilingan bo'linmalarning axborot tizimlari (probatsiyaning markazlashgan elektron tizimi, yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimi) bazasida "E-jamoat havfsizligi" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga to'liq tatbiq etish lozimligi haqida ko'rsatilgan.

2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 5050-sonli Prezident qarorida "Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshirilishi, Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo'ysunuvidan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o'tkazilishi va ularning kunlik xizmati mahallalar kesimida yo'lga qo'yilishi, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiyl boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatilishi, yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining hamraisligida Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rnlarda — Kengash) tashkil etilishi, ichki ishlar vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha manzilli choralarini nazarda tutuvchi "tuman, shahar ichki ishlar organlari tarkibida 2 000 ta shtat birliklaridan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog (keyingi o'rnlarda — inspektor-psixolog) lavozimlarini joriy etish hamda ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiyl o'rta ta'lim muassasalarini belgilash" to'g'risidagi takliflari maqullanganligi, inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o'quvchi kesimida umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash vazifalarini yuklatilganligi, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining elektron ma'lumotlar bazalarini yagona platforma negizida birlashtirish asosida "E-ichki ishlar organlari" markazlashgan axborot tizimini yaratishni asosiy vazifa etib belgilanganligi, ichki ishlar organlarining barcha axborot tizimlarini integratsiya qilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida Ichki ishlar

vazirligining Ma'lumotlarni qayta ishlash yagona markazini yaratish zarurligi ko'rsatilgan.⁵⁴

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2018 yildagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-4075-son Qarorida quyidagilar ko'rsatilgan: Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida huquq-tartibotni ta'minlash va ushbu yo'nalishda o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda joylardagi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari hamda jamoatchilik tuzilmalari ishtirokining samarasi pastligida, huquqbazarliklarning, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning oldini olish, ularga chek qo'yish, sodir etilganlarini fosh etishda fuqarolik pozitsiyasining sustligida namoyon bo'layotgan qator kamchiliklar mavjudligi, har oyda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining majlislarida hisobot davri yakuniga ko'ra, jamoat xavfsizligini ta'minlash natijalarining tahlili asosida “tegishli hududda sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir turdag'i jinoiy holatlar, jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha manzilli takliflarni ishlab chiqish hamda ularni hududlarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbazarlikka qarshi kurashish Respublika komissiyasiga kiritishni belgilangan holda huquqbazarliklar profilaktikasida bevosita ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tomonidan ko'rileyotgan chora-tadbirlarning ahvoli tanqidiy muhokama qilinishi, mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmalari rahbarlari lavozimlarini tugatib, ularga ish haqi to'lash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlarini saqlab qolgan holda, bo'shayotgan shtat birliklari hisobidan profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari (bundan buyon — profilaktika inspektorlarining yordamchilari) lavozimlarini joriy etish hamda ularga huquqbazarliklar profilaktikasi sohasida ichki ishlar organlariga amaliy yordam ko'rsatish uchun shaxsiy javobgarlikni yuklash lozimligi, biriktirilgan hududda jinoyatlar darajasi pasaygan, ularni oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari o'z vaqtida ko'rilegan hollarda bir vaqtning o'zida fuqarolar yig'inlari raislari va faollari, profilaktika (katta) inspektorlari va ularning yordamchilariga mehnatga haq to'lash fondining (pul ta'minotining) 100 foizigacha bo'lgan miqdorda (o'rnatilgan va to'lanayotgan qo'shimcha haq va ustamalardan qat'i nazar) va boshqa pul mukofotlari bilan taqdirlash tartibini joriy etilishi, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shgan profilaktika inspektorlarining yordamchilariga Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'ining tavsiyasiga asosan ichki ishlar organlarining oliy ta'lim muassasalariga, shu jumladan kasbiy tayyorgarlik fakultetiga kvota asosida o'qishga kirish huquqi berilishi, har bir mahallada “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasidagi

⁵⁴ 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” gi 5050-sonli Prezident qarori

Toshkent shahrining ijobiy tajribasi respublikaning barcha hududlariga tatbiq etilganligi, profilaktika (katta) inspektorlariga “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari faoliyatini kunlik nazorat qilish va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilishi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti, Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlash departamenti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida yuridik shaxs tashkil etmagan holda tegishlicha huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg‘armalari (bundan buyon — jamg‘armalar) tashkil etilishi belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin⁵⁵. Shuningdek, 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilinganligi yuqorida misollarning yaqqol namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel
2. 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 27-sonli Prezident farmoni
3. 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 5050-sonli Prezident qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.03.2023 yildagi “2022—2025-yillarda O‘zbekiston respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 121-son Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2018 yildagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4075-son Qarori

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2018 yildagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4075-son Qarori